

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XOLOV SHERALI AXRORBOYEVICH

**GLOBAL IQTISODIY TARAQQIYOT TENDENSIYALARI VA
ULARNING O‘ZBEKISTONDAGI JARAYONLARGA TA’SIRI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Xolov Sherali Axrorboyevich

Global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari va ularning O'zbekistondagi
jarayonlarga ta'siri5

Холов Шерали Ахрорбоевич

Тенденции глобального экономического развития и их влияние
на процессы в Узбекистане23

Kholov Sherali Akhrorboevich

Global economic development trends and their impact on processes in
Uzbekistan.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

XOLOV SHERALI AXRORBOYEVICH

**GLOBAL IQTISODIY TARAQQIYOT TENDENSIYALARI VA
ULARNING O‘ZBEKISTONDAGI JARAYONLARGA TA’SIRI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Fal425 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Choriyev Sanjarbek Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Huseynova Abira Amanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Aliyev Bekdavlal Aliyevich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 25” aprel soat 09:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (636 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 12” aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 12” aprel dagi 3 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda milliy iqtisodiyotning global iqtisodiyotga integratsiyalashishi nafaqat o'ziga xos tendensiyalar asosida rivojlanishni, balki milliy iqtisodiyot mazmuni va tarkibiga, rivojlanish yo'nalishlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Milliy iqtisodiyotni yuksaltirishni maqsad qilgan har qanday mamlakatda global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari, ularning rivojlanish jarayonlariga ta'siri tizimli ravishda tadqiq qilinishi jahon bozorida o'zgarishlar, texnologik innovatsiyalar, investitsiya oqimlari va pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois iqtisodiy o'sishda, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishida, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarda, mehnat samaradorligining yuksalishida birlamchi va ikkilamchi mezonlarni aniqlash, milliy iqtisodiyotni boshqarish va muvofiqlashtirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarda global iqtisodiyotning yuzaga kelishi sabablari va oqibatlarini, uning taraqqiyot tendensiyalari, yaqin kelajakdagi istiqbollari kabi masalalarga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada global iqtisodiy taraqqiyotning milliy iqtisodiyotga kirib kelishi iqtisodiyot milliy koloritining zaiflashishiga, ijtimoiy ziddiyatlarning o'tkirlashishiga, savdo-iqtisodiy aloqalarning murakkablashishiga, moliyaviy tizim barqarorligiga rahna solinishi, tashqi qarz o'sishi kabi xavflarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun global iqtisodiyotning zamonaviy tendensiyalarini, raqamli va yashil iqtisodiyotning shakllanishiga ta'sirini, O'zbekistonda investitsiya va tashqi savdo salohiyatini oshirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, moliyaviy nazorat turlarini zamonaviylashtirish kabi zamonaviy mexanizmlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida aholi turmush darajasini oshirish, to'laqonli hayot kechirish uchun zarur sharoitlar yaratadigan iqtisodiyotni shakllantirish, dunyodagi barqaror rivojlanayotgan mamlakatlar safidan joy olishga oid islohotlar amalga oshirilmoqda. "Shu nuqtai nazardan davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlari va yangi sarmoyadorlar sinfini shakllantirish o'ta muhim ahamiyatga ega. Buning uchun texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish orqali tezroq O'zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga olib chiqish imkonini beradigan kuchli milliy g'oya, milliy dastur kerak. ...Biz Yangi O'zbekistonni global ishlab chiqarishning muhim va ajralmas bo'g'ini hisoblangan, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatga aylantirishimiz zarur"¹. Mazkur mexanizmlarni shakllantirish va joriy etish uchun esa global iqtisodiy tendensiyalar mohiyati va ularning O'zbekistondagi jarayonlarga ta'sirini, inqirozli holatlarning O'zbekiston milliy

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. - Тошкент: "O'zbekiston", 2024. - Б.87.

iqtisodiyotiga kirib kelish xavfini yuzaga keltirayotgan omillarning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 28-yanvardagi PF-5643-son “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”, 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risidagi”, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiy taraqqiyot, uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq masalalar ilmiy muammo sifatida tadqiq qilinib kelinmoqda. Milliy iqtisodiyotlarning yagona global iqtisodiyotga integratsiyalashuviga F.Bergsten, L.Brayan, A.O’Sullivan, G.Roland, O.Farrell, St.M.Sheffrin kabi olimlar o‘z asarlarida diqqat qarata boshladilar². M.Beyttel, J.Maniyka, V.Martin, R.Uelsh, M.Fridman esa global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalarining ijtimoiy oqibatlarini tavsiflashga, R.Bardxem, Y.Shumpeter, D.Adjemoglu, G.Ploxotnikova, J.Robinson, U.Beyzingstouk, I.Ugarov, D.Yergin esa global iqtisodiy taraqqiyot keltirib chiqarayotgan muammolar va ijtimoiy illatlarni tahlil qildilar³.

² Вальрас Л. Элементы чистой политической экономии. - М.: Изограф, 2000; Маршалл А. Принципы экономической науки.- М.: Прогресс, 1993; Нельсон Р.Р., Уинтер С.Дж. Эволюционная теория экономических изменений — М.: Дело, 2002; Тобин Дж. Денежная политика и экономический рост. - М.: Литрес, 2010; Friedman M. Capitalism and Freedom. - Chicago: University of Chicago Press, 2002; Шумпетер Й. Теория экономического развития. — М.: Директмедиа Паблишинг, 2008.

³ Bardham P. Corruption and Development: a review of Issues // Journal of Economic Issues, 1997, № 3. - P. 1343-1346; Bergsten F. The world economy after the cold war // Foreign affairs, 1990, №3; Bryan L., Farrell O. Market Unbound: unleashing Global Capitalism. - N. Y., 1996; Friedman M. Capitalism and Freedom. - Chicago: University of Chicago Press, 2002; International relations in the twentieth century: a research / ed. By Williams M. Basingstoke. - London: Macmillan education, 1989; Maniyka J. J., Welsh R.T. Reviving America’s Cities on a

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida ham global iqtisodiyotning shakllanishi xususiyatlari, uning bugungi taraqqiyoti yo'nalishlari va oqibatlari atroflicha o'rganilmoqda. Xususan, U.Ayubov, I.Vladimirova, J.Djumayeva, Ye.Kamishanchenko, V.Krivoshayeva, L.Krilova, G.Machavariani, V.Pospelova, P.Probin, Y.Rastopchina, A.Ribinets o'z ilmiy ishlarida global iqtisodiyotning vujudga kelishi jarayonini tavsiflab bersalar⁴, A.Alixanov, E.Babayeva, D.Verdiyev, A.Vinar, D.Gordiyenko, A.Gujin, G.Gujina, Z.Dadashev, A.Ivanova, L.Ivanchenko, A.Karamisheva, M.Kastels, A.Mamayev, Ye.Mitareva, O.Opaleva, Y.Ososko, V.Skryabina, Ye.Tarasyuk, V.Tipanov, N.Ustinova uning ijtimoiy oqibatlarini tasniflab beradilar⁵.

O'zbekistonda ham global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Prezident Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari mohiyati va ular yuzaga keltirayotgan imkoniyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy xatarlar tavsiflab berilgan⁶. Shuningdek, I.Karimov, X.Abulkasimov, B.Aliyev, I.Avvalboyev, A.Huseynova, N.Batirova, S.Choriyev, G.Bekmurodova, O.G'aybullayev, N.Ziyadullayev, G.Zoxirova, A.Qodirjonov, N.Mahmudov, Z.Nurov, B.Omonov, M.Rajabova, M.Xajiyeva, A.Shirinov, M.Rashidov, M.Saidrasulova, J.Fayzullayev, A.Eshtayev ilmiy ishlarida global iqtisodiy

Global Scale.// Bloomberg Businessweek, 2012, October 18; Martin W.C., Belittle M. toward a Global Society? Evaluating Current Conceptions, Methods and Practices // the Sociological Quart, 1998. Vol. 39 (1); O'Sullivan A., Schifrin St. M. Economics: principles in action. - Boston, Mass.: Pearson/Prentice Hall Collection, 2007; Roland G. Transition Economics: politics, markets and firms. - Cambridge, 2000; Yergin D. Stanislaw. The Commanding Highs. The Battle between Government and the Marketplace that is Remaking the Modern World. - N. Y., 1998.

⁴ Владимирова И.Г. Глобализация мировой экономики: проблемы и последствия. // URL: <http://www.cfin.ru/press/management/2001-3/10.shtml>; Глобальная экономика. Международная макроэкономическая политика.- Нижегород: ННГАСУ, 2014; Глобальная экономика./ под ред. Е.Н. Камышанченко и Ю.Л. Растопчиной.- Белгород: ИПК НИУ "БелГУ", 2011; Джумаева Дж.Д. Понимание глобальной экономики. // Молодой ученый, 2023, №47.- 85-86-с.; Кривошеева В. А. Что несет собой глобализация? Феномен или провал? // Молодой ученый, 2015.- 452-454-с.; Мачавариани Г. Мир в 2022 году.// Основные показатели развития мировой экономики.- М.: ИМЭМО, 2023; Пospelova В.К., Крылова Л.В. Проблемы глобальной экономики. - М.:Прометей, 2023; Пробин П.С., Аюбов У.И. Международные экономические организации и их исследования.// Экономика и бизнес: теория и практика, 2018, №12-2; Рыбинцев А.И. Геоэкономика. - М.: Юрайт, 2024.

⁵ Алиханов А.А., Скрыбина В.Ю., Тарасюк Е.В. Либерализация торговых взаимоотношений между странами: оценка и последствия. // Международная торговля и торговая политика, 2015, №3; Бабаева Э.Э. Мировой финансовый кризис 2008-2009 годов: причины и последствия для мировой экономики. // Экономика и управление в XXI веке: тенденции развития, 2014, №15; Вердиев Д.А., Мамаев А.А. Международные финансовые рынки.// Экономика и бизнес: теория и практика, 2017, №4-1; Винар А.А., Иванченко Л.А. К вопросу о проблеме бедности в различных странах.// Актуальные проблемы авиации и космонавтики, 2012, №8; Гордиенко Д.В. Торговая война и санкционная борьба США и КНР.// Вестник Московского финансово-юридического университета, 2021, №1; Гужина Г.Н., Гужин А.А. Роль инноваций в экономическом развитии.// Инновации и инвестиции, 2020, №1; Дадасhev З.Ф., Устинова Н.Г. Влияние искусственного интеллекта на экономику.// Эпоха науки, 2019, №18.- 53-57-с.; Карамышева А.Р. Инвестиции и их роль в развитии экономики.// Транспортное дело России, 2009, №5; Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура.- М.: ГУ ВШЭ, 2000; Мытарева Е. А "Торговая война" как средство нетарифного регулирования международной торговли.// СибСкрипт, 2010, №1.- 74-77-с.; Опалева О.И. Международное разделение труда.// Финансы и кредит, 2001,№10; Ососко Я.С., Иванова А.Е. Торговые войны: историко-экономический аспект.// Научные записки молодых исследователей, 2019, №4; Типанов В.В. Эволюция международной торговли: различные временные горизонты, аспекты и тенденции.// Финансы: теория и практика, 2013, №6.

⁶ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston", 2021.; Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. - Тошкент: "O'zbekiston", 2024.

taraqqiyot sharoitida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tabiati va ularni bartaraf qilish yo‘llari tahlil qilingan⁷.

Mavzuga oid ilmiy ishlar global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari, ularning O‘zbekistonga ta’siri kabi muammolarni tadqiq etishda muhim rol o‘ynadi, albatta. Biroq adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, ularning birortasida global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalarining mohiyati, mamlakatdagi ijtimoiy jarayonlarga ta’siri ijtimoiy-falsafiy pozitsiyadan tadqiq qilinmagan. Ushbu dissertatsiya ishida global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalarining O‘zbekistondagi jarayonlarga ta’sirini falsafiy jihatlarini tadqiq etish zaruriyatidan kelib chiqib, uni yangi pozitsiyadan ochib berishga e’tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Barkamol inson shaxsining shakllanishida ob’yektiv shart-sharoitlar va sub’yektiv omillar dialektikasi” (2020-2025 yy) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalarining O‘zbekistondagi jarayonlarga ta’sirining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiy taraqqiyot mazmuni, mezonlari va ijtimoiy ahamiyati haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish;

global iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, uning shakllanishi sabablari va zamonaviy tendensiyalarini aniqlash;

global iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari doir ijtimoiy bashoratlarni tahlil qilish;

global tendensiyalar ta’sirida O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni tavsiflash;

global iqtisodiy tendensiyalar ta’sirida yuzaga kelayotgan iqtisodiy xatarlarni hamda ularni bartaraf qilish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

⁷ Абулкасимов Х.П. Ўзбекистонда иқтисодиётни инновацион ривожланиш йўлига ўтишини таъмин-лаш омиллари.// Иқтисод ва молия,2022,№3.-62-69-б.; Аввалбоев И. Давлат ташқи қарзи қачон хавотир уйғотиши мумкин?// uza.uz, 2023, 11 сентябрь; Батирова Н.Ш. Инновацион иқтисодиёт шаклланиши шароитида минтақа саноати ривожланишининг ташкилий-иқтисодий механизми (Тошкент вилояти мисоли-да).// uza.uz, 2022, 24 январь; Бекмуродова Г.Замонавий ижтимоий деструкция ва унинг Ўзбекистонда намоён бўлиши.- Қарши: ҚарДУ,2023; Зиядуллаев Н.С. Трансформация экономики Республики Узбекистан: история, современность, стратегии развития.// Региональные проблемы преобразования экономики, 2021, №8.- 7-17-с; Зохинова Г.М. Глобаллашув ва миллий иқтисодиётни модернизациялаш масалалари.// Иқтисод ва молия, 2015, №5.- 30-39-с.; Қодиржонов А.М. Ўзбекистон экспорт салоҳиятини ривожлантиришнинг институционал омиллари ва шарт-шароитлари.- Иқтисод ва молия, 2020, №4; Маҳмудов Н. Яшил иқтисодиёт – муҳим ҳаётий зарурат.// yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz, 2023, 19 февраль; Нуров З., Ражабова М. “Яшил иқтисодиёт”да энергетика соҳасининг иқтисодий-инвестицион ҳолати ва ривожланиш тенденциялари.// Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2022, №5; Омонов Б. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистондаги экологик муҳитга таъсири.- Т.: Ворис-нашриёт, 2021; Рашидов М.К. Эркин иқтисодий зоналарни ривожлантиришнинг жаҳон тажрибаси.// Иқтисод ва молия, 2018, №9; Саидрасулова М. Ҳар қандай уруш ва ҳарбий-сиёсий зиддиятлар оғир иқтисодий оқибатларга олиб келади.// www.gazeta.uz, 2022, 7 март; Файзуллаев Ж.Н. Рақамли иқтисодиёт тушунчасининг моҳияти бўйича илмий ёндашувлар таҳлили.// Иқтисод ва молия, 2022, №1; Эштаев А.А. Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви: муаммолар ва янги имкониятлар.// Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 2020, №3.- 328-333.

Tadqiqotning obyekti sifatida jahon iqtisodiyotining rivojlanish yo'nalishlari, iqtisodiy o'zgarishlar, global miqyosda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar va global iqtisodiy tizimning mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini global iqtisodiy tendensiyalarning O'zbekistondagi jarayonlarga ta'siri, O'zbekistonning global iqtisodiy tizimga integratsiyasi, iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlar hamda global iqtisodiy tendensiyalar bilan aloqada bo'lgan ichki iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, statistik tahlil, statistik guruhlash, korrelyatsion-regression tahlil, dialektik, sinergetik yondashuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot iqtisodiy o'sishda, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishida, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarda, mehnat samaradorligining yuksalishida namoyon bo'lishi hamda birlamchi (yalpi ichki mahsulot hajmi, iqtisodiyot tarkibi, xom ashyo yetkazuvchi sohalar ulushi, mehnat unumi, mahsulotlarning jon boshiga nisbati, inson kapitali) va ikkilamchi (korrupsiya darajasi, turmush darajasi, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, reyting ko'rsatkichlari) mezonlar yordamida o'lchanishi isbotlangan;

aloqa texnologiyalari va transport rivoji, savdo aloqalari liberallasuvi, kapital va investitsiyalar ko'payishi, xalqaro mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, ishchi kuchi malakasi oshishi, moliyaviy integratsiya oqibatida yuzaga kelgan global iqtisodiyotning zamonaviy tendensiyalari xalqaro savdo hajmi kengayishi, innovatsion texnologiyalar rolining ortishi, moliyaviy tizimning mustahkamlanishi, raqamli va yashil iqtisodiyotning shakllanishi bilan tavsiflanishi aniqlashtirilgan;

global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari O'zbekistonda investitsiya va tashqi savdo salohiyatini oshirishni, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishni, moliyaviy nazorat turlarini zamonaviylashtirishni, milliy iqtisodiyotga raqamli texnologiyalarni jalb etishni, yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashni, milliy iqtisodiyotni boshqarish va muvofiqlashtirishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan;

global iqtisodiy taraqqiyotga xos o'zga mintaqalardagi inqirozli holatlarning O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga kirib kelishi, iqtisodiyot milliy koloritining zaiflashishi, ijtimoiy ziddiyatlarning o'tkirlashishi, savdo-iqtisodiy aloqalarning murakkablashishi, moliyaviy tizim barqarorligiga rahna solinishi, tashqi qarz o'sishi xavfi kabi ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti ko'lami va sur'atlarini yalpi ichki mahsulot hajmi, iqtisodiyot tarkibi, xom ashyo yetkazuvchi sohalar ulushi, mehnat unumi, mahsulotlarning jon boshiga nisbati, inson kapitali, korrupsiya darajasi, turmush darajasi, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, reyting ko'rsatkichlari kabi mezonlar bilan belgilash uslubiyoti aniqlashtirilgan;

O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi jarayonlari, moliyaviy nazorat mexanizmi, raqamli texnologiyalar ravnaqi, yashil iqtisodiy o‘sish sur‘atlari, milliy iqtisodiyotni boshqarish uslubiylotining global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalar bilan dialektik aloqadorligi ochib berilgan;

global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari vujudga keltirayotgan ijobiy imkoniyatlardan milliy iqtisodiy manfaatlar yo‘lida oqilona foydalanish, milliy iqtisodiyotni yangi iqtisodiy xatarlardan muhofaza qilish uchun ularga doir tahliliy-amaliy dastur va prognostik materiallar tayyorlash zarurati asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma‘lumotlar, sotsiologik so‘rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g‘oyalardan iqtisodiy taraqqiyot sur‘atlarini birlamchi va ikkilamchi mezonlar yordamida aniqlash imkoniyatlari haqidagi ilmiy tasavvurlarni kengaytirishda, global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalarining O‘zbekistondagi jarayonlarga dialektik aloqadorligini aniqlash, xalqaro iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini o‘rganish va ularning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘sirini tushunishda, bu jarayonga doir yangi nazariy yondashuvlar va konseptual asoslarni ishlab chiqishda, shuningdek, iqtisodiy integratsiya va barqaror rivojlanish modellar bo‘yicha ilmiy yondashuvlar taklif qilishda, O‘zbekiston iqtisodiyotining barqarorligini oshirish, innovatsion rivojlanish va investitsiya muhitini yaxshilashga doir ilmiy asoslarni kengaytirishga doir jarayonlarida metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga doir normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda, ijtimoiy dasturlarni tayyorlashda, bu sohadagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish, chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, iqtisodiy siyosat bilan tanishtirish, hukumat organlari va iqtisodiy siyosat yurituvchi institutlarga xalqaro iqtisodiy tendensiyalarga mos strategiyalar ishlab chiqishda, innovatsion va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda mehnat bozorining rivojlanishi va migratsiya oqimlarini boshqarishda, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarida “Falsafa”, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Sotsiologiya” kabi fanlardan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni mazmunan boyitish, mavzuga doir ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot ishlarida, talabalar bilan uyushtiriladigan “Besh muhim tashabbus” tadbirlarini tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalarining O‘zbekistondagi jarayonlarga ta‘sirini aniqlash hamda ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar asosida:

zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot iqtisodiy o‘shishda, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishida, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarda, mehnat samaradorligining yuksalishida namoyon bo‘lishi hamda birlamchi (yalpi ichki mahsulot hajmi, iqtisodiyot tarkibi, xom ashyo yetkazuvchi sohalar ulushi, mehnat unumi, mahsulotlarning jon boshiga nisbati, inson kapitali) va ikkilamchi (korrupsiya darajasi, turmush darajasi, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, reyting ko‘rsatkichlari) mezonlar yordamida o‘lchanishi kabi nazariy mulohazalardan Qarshi davlat universitetida bajarilgan A-1-173-raqamli “Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish” amaliy tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 2-dekabrda 03/3663-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyihani takomillashtirishga va O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi jarayonlari, moliyaviy nazorat mexanizmi, raqamli texnologiyalar ravnaqi, yashil iqtisodiy o‘shish sur’atlari, milliy iqtisodiyotni boshqarish uslubiyotining global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalar bilan bog‘liqligini asoslashga xizmat qilgan;

aloqa texnologiyalari va transport rivoji, savdo aloqalari liberallasuvi, kapital va investitsiyalar ko‘payishi, xalqaro mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, ishchi kuchi malakasi oshishi, moliyaviy integratsiya oqibatida yuzaga kelgan global iqtisodiyotning zamonaviy tendensiyalari xalqaro savdo hajmi kengayishi, innovatsion texnologiyalar rolining ortishi, moliyaviy tizimning mustahkamlanishi, raqamli va yashil iqtisodiyotning shakllanishi bilan tavsiflanishiga doir nazariy mulohazalar va amaliy tavsiyalardan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasida 2024-yil 3-oktabr kuni efirga uzatilgan intervyuda va “Oltin voha” radiosi “Ochiq muloqot” eshittirishining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 8-oktabrdagi 17-05/145-son ma’lumotnomasi). Natijada, radiotinglovchilarda mavzu doirasida bilim ko‘nikmalarini oshirishga, jamoatchilik fikrini shakllantirish borasida sa’y-harakatlar samarasini oshirishga xizmat qilgan;

global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari O‘zbekistonda investitsiya va tashqi savdo salohiyatini oshirishni, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishni, moliyaviy nazorat turlarini zamonaviylashtirishni, milliy iqtisodiyotga raqamli texnologiyalarni jalb etishni, yashil iqtisodiy o‘shishni ta’minlashni, milliy iqtisodiyotni boshqarish va muvofiqlashtirishning zamonaviy mexanizmlarini takomillashtirish zaruratiga oid umumlasmalar va xulosalardan O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi faoliyatida, jumladan “Saylovoldi dasturi – 2024” dasturining “VI. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti – kuchli ijtimoiy siyosatning asosidir!” bandini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi Markaziy Kengashining 2024-yil 14-oktabrdagi 6-442-son ma’lumotnomasi). Natijada, partiyaning saylovoldi dasturini ishlab chiqish, uni yangi ma’lumotlar bilan boyitish va dastur asosida o‘tkazilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini mazmunan boyitishga xizmat qilgan; da muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

global iqtisodiy taraqqiyotga xos o‘zga mintaqalardagi inqirozli holatlarning O‘zbekiston milliy iqtisodiyotiga kirib kelishi, iqtisodiyot milliy koloritining zaiflashishi, ijtimoiy ziddiyatlarning o‘tkirlashishi, savdo-iqtisodiy aloqalarning

murakkablashishi, moliyaviy tizim barqarorligiga rahna solinishi, tashqi qarz o'sishi xavfi kabi ijtimoiy-falsafiy xususiyatlariga doir nazariy mulohaza va amaliy taklif-tavsiyalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-2024 yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida, jumladan 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan III "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" 15-bandi "Geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 3-dekabrda 10/188-son ma'lumotnomasi). Natijada, global iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari va ularning O'zbekistondagi jarayonlarga ta'siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 136 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Iqtisodiy taraqqiyotni ijtimoiy-falsafiy tadqiq etishning nazariy-metodologik masalalari**" deb nomlanib, unda O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotida global tendensiyalar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlar hamda global iqtisodiy tendensiyalar ta'sirida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy xatarlar falsafiy tahlil etilgan.

"Iqtisodiy taraqqiyot" tushunchasi ilmiy muomalaga Y.A.Shumpeter tomonidan kiritilib, iqtisodiy ravnaqni oddiy iqtisodiy o'sishdan tafovutlash maqsadida qo'llanilgan. Darhaqiqat, tushuncha nafaqat mazmunan boy, balki hajman ham kengdir. Hajman iqtisodiy taraqqiyot deganda bir necha yo'nalishdagi sifatli o'zgarishlar nazarda tutiladi. Iqtisodiy o'sish mahsulot va xizmatlarning miqdoran ko'payishi bilan bog'liq. Iqtisodchi olimlar iqtisodiy o'sishga olib

keladigan mexanizmlarni turlicha tavsiflaydilar. Masalan, L.Valras, A.Marshal, M.Fridman kabi olimlar o'z asarlarida iqtisodiy o'sishni sof iqtisodiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan miqdoriy yuksalish sifatida tasvirlaydilar⁸. J.Tobin esa iqtisodiy o'sish nafaqat iqtisodiy, balki iqtisodiyotga dahldor bo'lmagan ko'plab omillar ta'sirida yuzaga kelishini uqdiradi⁹. R.Nelson va S.Uinter o'z asarlarida iqtisodiy o'sishni milliy iqtisodiyot rivojining yorqin natijasi deb ko'rsatadi¹⁰.

Dissertatsiyada iqtisodiy taraqqiyot innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi bilan bog'liq o'zgarishlarni o'z ichiga olishi asoslab berilgan. Innovatsion iqtisodiyot yangi texnologiyalarning iqtisodiyotga tatbiq etilishi bilan bog'liq jarayonlarni ifodalaydi. Bu texnologiyalarning joriy qilinishi nafaqat mahsulotlar va xizmatlar miqdori va sifatiga o'zgarishlar kiritadi, balki mehnat samaradorligining tubdan yuksalishiga zamin hozirlaydi. Uning ahamiyati shundaki, innovatsion iqtisodiyot aholi turmush darajasining oshishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, eksport salohiyatining yuksalishiga, fan va ta'lim ravnaqiga xizmat qiladi. Shu boisdan mutaxassislarning ilmiy ishlarida *innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi* iqtisodiy yuksalishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi¹¹.

Iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishlaridan yana biri *iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar* xarakteri bilan bog'liq. Iqtisodiyot ravnaq topishi uchun tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga urg'u berilmog'i lozim. Buning uchun esa iqtisodiyot tarkibida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ya'ni iqtisodiy sub'ektlar faoliyatini tubdan yangilash, yangi tarmoqlar va sektorlarni vujudga keltirish, ular o'rtasidagi aloqadorlikni mustahkamlash lozim bo'ladi. Ana shu jarayonlarning bo'y ko'rsata boshlashi iqtisodiyotning ravnaqqa hozirigidan dalolat beradi.

Iqtisodiy taraqqiyotning navbatdagi yo'nalishi *mehnat samaradorligi* bilan bog'liq. Mehnatning samarali tarzda tashkil etilishi va amalga oshirilishi qisqa muddatda ko'proq mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi. Buning natijasida mamlakatdagi ishlab chiqarish hajmi muttasil miqdoran oshib boradi, aholiga taqdim qilinayotgan tayyor mahsulotlarning tannarxi esa pasayadi. Bundan tashqari, unumli va oqilona mehnat turli resurslar sarf-xarajatini kamaytiradi.

Tadqiqotchi fikricha, iqtisodiy taraqqiyot stixiyali va tasodifiy ravishda sodir bo'ladigan va bo'y ko'rsatadigan jarayon emas. U jamiyatning barcha mavjud resurslarini keng ko'lamda safarbar qilishni taqozo etadi. Mutaxassislarning ilmiy ishlarida iqtisodiy taraqqiyotga turtki beruvchi ko'plab omillar tavsiflanadi. Masalan, amerikalik iqtisodchilar D.Adjemoglu va J.Robinsonlar iqtisodiy taraqqiyot siyosiy barqarorlikni taqozo qilishiga alohida urg'u beradilar. G.V.Semeko, I.A.Ugarov, G.V.Ploxotnikova esa iqtisodiy taraqqiyotning boshqa

⁸ Qarang: Вальрас Л. Элементы чистой политической экономии. - М.: Изограф, 2000; Маршалл А. Принципы экономической науки. - М.: Прогресс, 1993. Friedman Мю Capitalism and Freedom. - Chicago: University of Chicago Press, 2002.

⁹ Qarang: Тобин Дж. Денежная политика и экономический рост. - М.:Литрес, 2010;

¹⁰ Qarang: Нельсон Р. Р. Уинтер С.Дж. Эволюционная теория экономических изменений — М. Дело, 2002.

¹¹ Qarang: Абулкасимов Х.П. Ўзбекистонда иқтисодий инновацион ривожланиш йўлига ўтишни таъминлаш омиллари. // Иқтисод ва молия, 2022, №3.- Б.62-69.

omiliga – ta’lim va fan rivojiga diqqatni qaratadilar. Mutaxassislarining yana bir guruhi iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun iqtisodiy infratuzilmani takomil toptirish kerakligini uqdiradilar¹². Ayrim olimlar iqtisodiy taraqqiyot innovatsiyalarning ishlab chiqarishga keng miqyosda tatbiq etilishi mahsuli ekanligini ta’kidlaydilar¹³. Nihoyat, ilmiy manbalarda iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlovchi muhim omillaridan biri sifatida investitsiyalarning ahamiyati tilga olinadi¹⁴.

Dissertatsiyada iqtisodiy taraqqiyot sur’atlari va bu borada erishgan muvaffaqiyatlar qator mezonlar yordamida o’lchab, aniqlab va ifodalab borilishi qayd etilgan. Bu mezonlar turkumiga yalpi ichki mahsulot hajmi, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibi, sektorlardagi mehnat unumdorligi, asosiy mahsulotlarning aholi jon boshiga nisbati, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, shuningdek, inson kapitali ahvoli, korrupsiya darajasi, aholi turmush darajasi kabilarni kiritish mumkin.

Dissertant mulohazalariga ko’ra, iqtisodiyot ravnaqi o’ta muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki, *birinchidan*, iqtisodiy taraqqiyot yangi ish o’rinlarining yaratilishi jarayonini jadallashtiradi. Iqtisodiyot rivoj topa borarkan, ishlab chiqarish kengayishda davom etadi, yangi tarmoq va tuzilmalar vujudga keladi, kichik va o’rta biznes topadi. Pirovardida bu yangi ish o’rinlarining paydo bo’lishi bilan intiho topadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy taraqqiyot fuqarolarning ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Iqtisodiyot ravnaqi yangi va yangi tarmoqlar vujudga kelishiga, tadbirkorlik rivoj topishiga olib kelar ekan, ularda mehnat qilishi lozim bo’lgan yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyojni ham, bu mutaxassislarning mehnat faoliyati bilan shug’ullanishi imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Oqibatda ta’lim tizimida shu mutaxassislarni tayyorlashga ajratilgan kvotalar miqdori ham oshadi.

Uchinchidan, iqtisodiy taraqqiyot fuqarolarning sog’liqni saqlash tizimi xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mamlakat iqtisodiy ravnaqi jadallashgani sayin sog’liqni saqlash tizimi takomil topib boradi, fuqarolarga tibbiy xizmat ko’rsatish spektri kengayadi.

To’rtinchidan, iqtisodiy taraqqiyot fuqarolarning turmush darajasini oshirish uchun shart-sharoit yaratadi. Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti sur’atlari jadallashgani sayin aholi tarkibida farovon turmush kechirayotgan kishilar ulushi ortib, qashshoqlar soni kamayib boradi.

Beshinchidan, iqtisodiy taraqqiyot jamiyatdagi kambag’allik darajasini sezilarli kamaytiradi. Yurt iqtisodiy jihatdan ravnaq topgani sayin kambag’allikni kamaytirish imkoniyatlari kengayib boraveradi.

Oltinchidan, iqtisodiy taraqqiyot mamlakatdagi shahar va qishloqlar infratuzilmasini takomillashtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Iqtisodiy

¹² Qarang: Семика Г.В. Образование как фактор экономического роста. // Экономические и социальные проблемы России, 2010, №2. – С.41-83-с.; Угаров И.А., Плохотникова Г.В. Наука и образование как факторы экономического развития современного мира. // Тенденции развития науки и образования, 2021, №11.- С.94-98.

¹³ Шарифов Ш. Инновацион ишланмаларни ҳаётга татби этиш – тараққиёт гарови.// uza.uz, 2021, 24 февраль.

¹⁴ Карамышева А.Р. Инвестиции и их роль в развитии экономики. // Транспортное дело России, 2009, -№5. - С.16.

taraqqiyot sur'atlarining jadallashuvi, yalpi ichki mahsulotning o'sishi, aholi daromadlarining ortishi infratuzilmani takomil toptirishga va turmush sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan ehtiyojni oshirib boraveradi. Mamlakat iqtisodiy yuksalishi sharofati bilan avtomobil yo'llari va ko'priklar barpo etishga, yangi temir yo'l yo'nalishlarini shakllantirishga, aeroport va vokzallarni kengaytirishga, energetika ob'ektlarini ko'paytirishga, jamoat transportini takomillashtirishga, yangi ta'lim va tibbiyot maskanlarini bunyod qilishga tobora ko'proq mablag' ajratish imkoni paydo bo'ladi.

Yettinchidan, iqtisodiy taraqqiyot madaniy sohani rivojlantirishning moliyaviy manbalarini ko'paytiradi. Iqtisodiy taraqqiyot jadallashgani sayin madaniyat muassasalari faoliyati uchun ajratmalar hajmi ortib boraveradi. Buning natijasida yurt bo'ylab yangi va yangi teatr va kinoteatrlar, sirk va galereyalar, kutubxona va muzeylar, madaniyat uylari va parklar, lektoriyalar va ma'rifat maskanlari, qo'riqxona va botanika bog'lari, milliy oromgohlar va hordiq markazlari paydo bo'ladi.

Sakkizinchidan, iqtisodiy taraqqiyot mamlakatning xalqaro miqyosdagi nufuz va obro'sini oshiradi. Hech bir omil iqtisodiy taraqqiyotchilik mamlakatning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirmaydi. Yurtning iqtisodiy ravnaqi uni darhol boshqa davlatlar va xalqlar diqqat markaziga tushiradi. Uning ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot va iste'mol borasidagi tajribalari xalqaro tashkilotlar va ekspertlar tomonidan faol e'tirof etila boshlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Global iqtisodiy taraqqiyot: tendensiyalari va istiqbollari”** deb nomlanib, unda global iqtisodiyotning shakllanishi sabablari va taraqqiyotining asosiy tendensiyalari hamda istiqbollari tahlil qilingan.

Global iqtisodiyot deganda turli milliy iqtisodiyotlarni o'zida mujassam qilgan yaxlit tizim tushuniladi. U turli milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi barcha ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot, iste'mol sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni, shu munosabatlarni amalga oshirish imkonini beradigan tashkilotlar, vositalar, ob'ektlar, jarayonlar majmuini qamrab oladi. Global iqtisodiyot kapital, mehnat, mahsulot va xizmatlarning barcha mamlakatlar bo'ylab erkin harakatlanishida, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy institutlarning mavjudligida, jahon iqtisodiyotidagi jarayonlarni muvofiqlashtirib boruvchi tashkilotlarning faoliyat ko'rsatayotganida namoyon bo'ladi. Global iqtisodiyotda xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlar, investitsiyalar, transmilliy korporatsiyalar va xalqaro moliya bozorlari muhim rol o'ynaydi.

Dissertatsiyada global iqtisodiyot va milliy iqtisodiyot o'zaro dialektik aloqadorligi asoslab berilgan. *Bir tomondan*, global iqtisodiyotning o'zi milliy iqtisodiyotlarning shiddatli rivoji natijasida yuzaga kelgan tizim hisoblanadi. Taraqqiyotning ma'lum davrida milliy iqtisodiyotlar rivoji shu darajaga yetdiki, uni yanada ravnaq toptirish ehtiyoji global iqtisodiyotning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. *Ikkinchi tomondan* esa, global iqtisodiyot shakllangan pallasidan boshlab milliy iqtisodiyotlarga, ularning mazmuni va tarkibiy tuzilishiga, ular negizida sodir bo'layotgan jarayonlarga qudratli ta'sir ko'rsata boshladi. Global iqtisodiyotning mustahkam qaror topgani tufayli bugungi kunda tom ma'noda

mahdud bo'lgan, jahon iqtisodiy jarayonlaridan ayri holda rivojlanayotgan iqtisodiyotlar qariyb qolmadi. Barcha milliy iqtisodiyotlar yagona global iqtisodiyot tarkibida birlashgan yaxlit tizimni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, global iqtisodiyot tizim (sistema) bo'lsa, milliy iqtisodiyotlar tizimosti (podsistema)dir.

Dissertatsiyada ilmiy manbalarga tayangan holda global iqtisodiyot qator sabablarning oqibati sifatida qaror topgani ochib berilgan. Bu sabablar kommunikatsion aloqa vositalarining jadal rivojlana boshlagani, savdo aloqalarining liberallashtirishgani, xalqaro savdo va investitsiyalar hajmining keskin oshgani, mehnatning xalqaro taqsimoti yuz bergani, ishchi kuchi ma'lumoti va malakasining takomil topgani, kishilarning iste'mol ehtiyojlari yuksalgani, moliyaviy integratsiya ro'y bergani bilan bog'liq. U muttasil o'zgarib, takomil topib, rivojlanib bormoqda. Uning bugungi rivojlanishida turkum tendensiyalar yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, *birinchidan*, bugungi global iqtisodiyot xalqaro savdo hajmlarining jadal kengayib borayotgani bilan xarakterlanadi. *Ikkinchidan*, global iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarning roli ortib bormoqda. *Uchinchidan*, global iqtisodiyotda moliyaviy tizimning mustahkamlanishi tendensiyaviy tus olmoqda. *To'rtinchidan*, global iqtisodiy taraqqiyotning yana bir tendensiyasi raqamli iqtisodiyotning shakllanayotgani bilan bog'liq. *Beshinchidan*, bugungi davrda yashil iqtisodiyotning shakllanishi tendensiya darajasiga ko'tarilmoqda. *Oltinchidan*, global iqtisodiy taraqqiyot tobora muvofiqlashtiruvchan xarakter kasb qilib bormoqda.

Tadqiqotda yaqin kelajakda mintaqalardagi demografik vaziyat ham ularning global iqtisodiy taraqqiyotdagi hissasini o'zgartirishi ta'kidlangan. Yevropada tug'ilish ko'rsatkichlarining pasayishi va aholining jadal qarishi bilan xarakterlanadigan demografik vaziyat nafaqat aholi tarkibining mislsiz o'zgarishiga sabab bo'lishi, balki qator moliyaviy va iqtisodiy oqibatlariga ham olib kelishi kutilmoqda. Yevropadan farqli o'laroq, Osiyo va Afrika mamlakatlarida demografik o'sish sur'atlari kattaligicha qolmoqda. Hukumatlar bu o'zgarishlarni nafaqat hal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy muammo, balki iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish imkonini beradigan imkoniyat sifatida ham baholamoqdalar¹⁵. Aftidan, yaqin kelajakda mazkur qit'alarda ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanishga bo'lgan intilish orta boradi. Yaqin kelajakda xalqaro siyosiy ziddiyatlarning global iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri kuchayishi kutilmoqda. Davlatlarning xalqaro siyosiy munosabatlarda turfa maqsadlarga intilishi, turli mafkura va qadriyatlarga tayanishi, turli manfaatlarni yoqlashi ular o'rtasidagi siyosiy qarama-qarshilik, raqobatni benihoya keskinlashtirmoqda. Vaholanki, "har qanday siyosiy ziddiyat, qurolli to'qnashuv va urushlar ijtimoiy-iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelib, insoniyat taraqqiyotining bir necha yillar ortda qolishiga sababchi bo'ladi"¹⁶.

¹⁵ Qarang: Нуше Коджо Гиврэ. Демография Африки: экономическая проблема или источник возможностей? // Экономические исследования, 2020, №4.- С.6.

¹⁶ Саидрасулова М. Ҳар қандай уруш ва ҳарбий-сиёсий зиддиятлар оғир иқтисодий оқибатларга олиб келади. // www.gazeta.uz, 2022, 7 март.

Disertant mulohazalariga ko'ra, iqlim o'zgarishlarining global iqtisodiy taraqqiyot sur'atlariga ta'siri kuchayishi e'tirof etilmoqda. Xususan, global isish, yog'ingarchilik darajasining o'zgarishi va boshqa iqlim o'zgarishlari suv, o'rmon, baliq kabi tabiiy resurslarning mavjudligi va sifatini kamaytirishi mumkin, bu esa iqtisodiyotning ko'plab sektorlariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Haroratning ko'tarilishi va ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishi qishloq xo'jaligida hosildorlikning pasayishiga va xo'jaliklar daromadlarining kamayishiga olib kelishi mumkin¹⁷.

Kelajakda ilm-fanning global iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri yanada faollashishi shubha uyg'otmay qo'ydi. Ilm-fanning sun'iy intellekt, biotexnologiyalar va genetik injeneriya, nanotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, energetika va ekologiya yo'nalishdagi muvaffaqiyatlari va kashfiyotlari yaqin 20-30 yildagi global iqtisodiy taraqqiyot xarakterini tubdan o'zgartiradi. Shuningdek, mintaqaviy integratsion birlashmalarning global iqtisodiy taraqqiyotdagi roli oshishi kutilmoqda. Bunday mintaqaviy birlashmalarning ko'payishi turli mamlakatlardagi ishlab chiqarish jarayonlarini o'zaro uyg'unlashtirib yuboradi. Ular sharofati bilan mintaqalarda ishlab chiqarishning yagona texnologik majmui vujudga keladi. Mintaqaviy birlashmalar mintaqadagi ishlab chiqarishning fan va texnika bilan kooperatsiyasini chuqurlashtiradi, iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyotiga yo'l ochadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Global va O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti o'rtasidagi aloqadorlik: ijtimoiy-falsafiy tahlil”** deb nomlanib, unda O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotida global tendensiyalar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlar yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy xatarlar falsafiy tahlil qilingan.

